

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI



**70412206 – “SUG’URTA KOMPANIYALARINI BOSHQARISH”
MAGISTRATURAGA MUTAXASSISLIGIGA KIRISH BO‘YICHA
MAXSUS FANDAN SINOVLAR**

DASTURI

Fan bo'yicha magistraturaga kirish sinovlari dasturi Bank-moliya akademiyasi Kengashining 2022-yil « ____ » _____dagi ____ - sonli majlis bayonnomasi bilan ma'qullangan.

“TAVSIYA ETILGAN»

“Sug‘urta va risklarni boshqarish” kafedrasida
majlisida muhokama qilingan va tavsiya etilgan
Kafedra mudiri _____ I.X.Abduraxmonov
(kafedra majlisining “ ____ ” - sonli bayonnomasi
“ ____ ” _____ 2022-yil)

Tuzuvchi:

Abduraxmonov I.X. O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi “Sug‘urta va risklarni boshqarish” kafedrasida mudiri, i.f.n., dots.

Taqrizchi:

Tursunov J.P. O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi “Sug‘urta va risklarni boshqarish” kafedrasida dotsenti, i.f.f.d

KIRISH

Hozirgi zamon iqtisodiyotida sugʻurta mexanizmi juda keng qoʻllanilmoqda. Shu sababli, yetuk sugʻurtachilarni tayyorlashda sugʻurta xizmatlaridan foydalanishni oʻqitish boʻlajak sugʻurtachilarni oʻz faoliyatida uchraydigan iqtisodiy masalalarni hal qilishda, toʻgʻri va asosli qarorlar qabul qilishlarida muhim ahamiyatga egadir.

Sugʻurta munosabatlari murakkab va keng qamrovli iqtisodiy-moliyaviy-pullik munosabatlar boʻlib, ularning tashkiliy shakllari qandayligidan qatʻiy nazar sugʻurta fondini yaratish va undan foydalanish jarayoni hisoblanadi. Taʼkidlash lozimki, mazkur munosabatlar yuzaga kelishi uchun oʻzaro bogʻliq omillar mavjudligi muhimdir. Xususan, risk omilisiz sugʻurta oʻz mohiyatini yoʻqotadi.

Shu bois, ushbu fan sugʻurtaning paydo boʻlishi va tadrijiy rivojlanishi, sugʻurta nazariyasining mohiyati, asoschilari va namoyondalari, sugʻurta himoyasining talqini, sugʻurta munosabatlari tizimining mazmuni va tashkil qilish asoslari, sugʻurta munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlar, ularning huquq va majburiyatlari, sugʻurta sohasini tartibga soluvchi huquqiy-meʼyoriy asoslar, sugʻurta sohasini nazorat etuvchi organning tashkil etilishi, majburiy sugʻurtaning sugʻurta tizimidagi oʻrni, uni tashkil etishning zarurligi va afzalliklari va boshqa atributlarni tizimli va kompleks ravishda mujassamlashtiruvchi ilmiy-nazariy va metodologik asoslar yaxlitlik, uzviylik va uzluksizlik tamoyillari nuqtai-nazaridan mantiqiy ketma-ketlikda oʻz aksini topgan.

Dastur Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 yil 28 yanvardagi 2022 - 2026 yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, PF-60-son Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi “Taʼlim toʻgʻrisida”gi OʻRQ-637-sonli, 2019 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat toʻgʻrisida”gi OʻRQ-576-sonli Qonunlari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida” gi PF-5847-sonli Farmoni va 2019-yil 2-avgustdagi “Oʻzbekiston Respublikasining sugʻurta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4412-sonli asosiy qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib 70412206 – “Sugʻurta kompaniyalarini boshqarish” magistratura mutaxassisligiga oʻqishga qabul qilinayotgan tinglovchilar quyidagi bazaviy mavzular boʻyicha bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishlari talab qilinadi.

I. FANNING ASOSIY MAVZULARI

1-MAVZU. RISK NAZARIYASI

Risk nazariyalari. Riskologiyaning qonun va qonuniyatlari. Risk nazariyasining rivojlanish bosqichlari. O'zbekistonda risk nazariyasi. Noaniqlik tasnifi. Noaniqlik va risk. Tasodifiylik. O'lchanadigan noaniqlik. Sug'urtalanadigan noaniqlik. Manfaatlar qarama-qarshiligi. Risk jarayoni va uning tarkibiy tuzilishi. Iqtisodiyotda sikllar. Risk gradatsiyasi. Risk tarkibi va uning konseptual modeli. Risklarning hayotiylik aylanmasi. Iqtisodiyotda risk konsepsiyalarining o'zaro bog'liqligi. Risk va sug'urta nazariyasi. Risk tushunchasiga berilgan ta'riflar. Risk tushunchasi, uning mohiyati va turlari. Risklarning umumiy klassifikatsiyasi.

2-MAVZU. SUG'URTANING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY MOHIYATI

Sug'urta risklari va ularning transferi. Risklarni boshqarish modellari. Sug'urtaga qabul qilinmaydigan risklar. O'zbekistonda risk transfertining umumiy holati. Sug'urtaga berilgan umumiy ta'riflar. Sug'urtaning umumiy tushunchasi. Sug'urtaning funksiyalari, vazifalari va tamoyillari. Sug'urta atamalari definititsiyasi. Sug'urta fondini tashkil etish bilan bog'liq atamalar guruhi. Sug'urta fondidan foydalanish bilan bog'liq atamalar guruhi. Xalqaro sug'urta amaliyotida ishlatiladigan atama va iboralar.

Sug'urtaning evolyutsiyasi. Mol-mulk va hayot sug'urtasining paydo bo'lishi. Notijoratga asoslangan sug'urtaning paydo bo'lishi. Tijoratga asoslangan sug'urtaning rivojlanishi va iqtisodiyotdagi roli.

3-MAVZU. SUG'URTA MUNOSABATLARI VA ULARNI TARTIBGA SOLISH MEKANIZMLARI

Sug'urta munosabatlari haqida tushuncha. Sug'urta munosabatlariga kirishuvchilarning huquq va majburiyatlari. Sug'urta vositachilarining sug'urta munosabatlaridagi o'rni. Davlatning sug'urta sohasini rivojlantirishdagi roli.

Sug'urta huquqi va uning mazmuni. Sug'urta munosabatlarini tartibga solishda huquqning ahamiyati. Sug'urta qonunchiligi, sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar. Sug'urta faoliyati qonun osti hujjatlari bilan tartibga solish.

Sug'urtalovchi tushunchasi va unga qo'yiladigan talablar. Sug'urta kompaniyalarining ustav kapitali. Sug'urta kompaniyalarini ro'yxatga olish. Aksiyadorlik, xususiy, keptiv va boshqa mulk shaklidagi sug'urta kompaniyalarining o'ziga xos jihatlari. Sug'urta kompaniyalarining boshqaruv tuzilmalari tahlili.

4-MAVZU. SUG'URTADA TARIF SIYOSATI

Raqobat sharoitida sug'urta xizmatlariga narx-navoning shakllanish xususiyatlari va sug'urta tarifi tushunchasi. Tarif siyosati. Sug'urta mukofoti. Sug'urta tarif stavkasining tuzilishi va tarkibi. Brutto va netto stavkani hisoblashning tamoyillari.

5-MAVZU. SUG'URTA SOHALARI VA ULARNING INTERPRETATSIYASI

Sug'urta faoliyati sohalari. Sug'urtaning sohalarga bo'linishining sabablari va ahamiyati. Umumiy sug'urta tarmog'i va unga oid klasslari. Hayotni sug'urta qilish tarmog'i. Sug'urta klasslarining mazmuni hamda ular bo'yicha sug'urtalash shartlariga qo'yiladigan talablar.

Mulkiy sug'urtasining iqtisodiy mohiyati. Mol-mulklarni sug'urta qilishning klasslari va sug'urta turlari, ularni amalga oshirishning huquqiy asoslari va shakllari. Javobgarlik sug'urtasining iqtisodiy mohiyati. Javobgarlikni sug'urta qilish klasslari va sug'urta turlari (AFJMSQ, IFJMSQ, TJMSQ), ularning amalga oshirishning huquqiy asoslari va shakllari. Shaxsiy sug'urta haqida umumiy tushuncha, uning iqtisodiy mohiyati. Hayotni sug'urta qilish klasslari va sug'urta turlari, ularni amalga oshirishning huquqiy asoslari va shakllari.

6-MAVZU. MAJBURIY VA DAVLAT MAJBURIY SUG'URTASI

Majburiy sug'urtaning ijtimoiy, iqtisodiy mohiyati. Majburiy sug'urtani amalga oshirishning huquqiy asoslari va mexanizmlari. Majburiy sug'urtaning asosiy turlari. Davlat majburiy sug'urtasining mohiyati. Davlat majburiy sug'urtasining turlari va amalga oshirish mexanizmlari.

7-MAVZU. SUG'URTA TASHKILOTINING IQTISODIY-MOLIYAVIY FAOLIYATI

Sug'urtada moliyaviy munosabatlar. Sug'urta kompaniyalarining iqtisodiy-moliyaviy faoliyati. Sug'urta kompaniyalarida moliyaviy natijani shakllantirishning asosiy tamoyillari. Sug'urta kompaniyalarining daromadlari va ularning tarkibiy o'ziga xos xususiyatlari. Sug'urta kompaniyalarining xarajatlari va uning tarkibi. Sug'urta kompaniyasining foydasi va uni hisoblash.

Sug'urta zaxiralari haqida umumiy tushuncha. Sug'urta zaxiralari ning turlari va ularni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari. Sug'urta kompaniyasining sug'urta zaxiralari tahlili. Sug'urta zaxiralarni joylashtirish talablari. Sug'urta kompaniyasining investitsion siyosati. Sug'urtalovchining investitsion jarayonlarda ishtirok etish shart-sharoitlari. Sug'urtalovchining investitsiya faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslari. Pay fondiga va umumiy sug'urtalash bo'yicha zaxiralarni joylashtirish.

8-MAVZU. SUG'URTA BOZORINING TARKIBI

Sug'urta tashkilotini tuzish, davlat ro'yxatidan o'tkazish. Sug'urtalovchini tashkil etish shakllari: tarixiy, iqtisodiy va xuquqiy yondashuvlar. Tijorat asosida faoliyat yurituvchi sug'urta tashkiloti va uning o'zaro sug'urtalash jamiyatlaridan tashkilotlaridan farqi. O'zaro sug'urtalash: uni tashkil etishning tarixiy va zamonaviy shakllari. Ixtisoslashgan va universal sug'urta tashkilotlari. Keptiv sug'urta tashkiloti. Sug'urta tashkilotining tashkiliy tuzilishi. Sug'urta tashkilotining bosh ofisi va uning filiallari o'rtasidagi munosabatlar.

9-MAVZU. SUG'URTA MENEJMENTI VA PERSONALNI BOSHQARISH

Sug'urtalovchilar mehnat faoliyatini tashkil etish asoslari. O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik va mehnat kodeksining mazmun mohiyati. Sug'urta tashkiloti xodimlarning mansab vazifalari. Sug'urta kompaniyasi xodimlari uchun ichki tartibga qoidalar to'g'risidagi Nizom va uning mazmuni. Sug'urta tashkilotlarida marketing va reklama, yuridik maslahat va buxgalteriya bo'lim xizmatlarini tashkil qilish. Andarraytarning funktsiya va vazifalari. Uning majburiyatlari.

Sug'urta tashkilotining mehnat resurslari asosi va tuzilmasi. Sug'urta tashkilotlarida kadrlar siyosati. Sug'urta tashkilotlarida personal boshqarishning metodlari. Sug'urta tashkilotlarida personal baholash tizimi. Sug'urta tashkiloti personal boshqaruv obyekti sifatida. Kadrlar tanlash va ularni taqsimlash siyosati. Sug'urta tashkilotlarida personal boshqarish strategiyasi. Sug'urta agentlari va sug'urta brokerlari faoliyati.

10-MAVZU. SUG'URTA MARKETINGI VA UNING INSTRUMENTLARI

Sug'urta marketingining mohiyati, funktsiyalari va tamoyillari. Xorijiy mamlakatlarda sug'urta marketingining nazariy asoslari. Sug'urta kompaniyalarida marketing ishini tashkil etish. Sug'urta kompaniyalarining marketing strategiyasi. Sug'urta kompaniyalarida marketing ishini tashkil etishning asosiy tamoyillari va uning tashkiliy shakllari. Sug'urta kompaniyalarida marketing faoliyatining mohiyati va ahamiyati. Sug'urta kompaniyalarida marketing bo'limining asosiy funktsiyasi va vazifalari. Sug'urta marketingining asosiy yo'nalishlari. Sug'urta marketingining uslublari.

Segmentatsiya tushunchasi va uning tamoyillari. Sug'urta bozorini segmentatsiyalashning mezonlari. Sug'urta bozorini geografik segmentatsiyalash. Sug'urta bozorini demografik segmentatsiyasi. Sug'urta xizmatlari is'temolchilarini jinsiga qarab segmentatsiyalash. Sug'urta bozorini texnik segmentatsiyalash. Segmentatsiyalashning zamonaviy uslublari.

11-MAVZU. SUG'URTA MAHSULOTINI YARATISH VA SOTISH INJINIRINGI

Sug'urta mahsulotlari tushunchasi va tarkibi. Sug'urta mahsulotlarini sotishni tashkil etish. Sug'urta mahsulotlarini sotishda sug'urta vositachilarining roli. Sug'urta mahsulotlarini sotishda reklamaning o'рни. O'zbekistonda sug'urta mahsulotlarini sotishning milliy modeli va uning xususiyatlari.

Sug'urta polisi. Sug'urta polisi va uni jismoniy shaxslarga sotish tartibi. Jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish va uni rasmiylashtirish tartibi. Shaxsiy sug'urta turlari bo'yicha sug'urta polislarini sotish xususiyatlari. Yuridik shaxslarga sug'urta polislarini sotish tartibi. Yuridik shaxslarga sug'urta mahsulotlarini sotishda agent va mijoz o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar. Yuridik shaxslarga sug'urta mahsulotini sotishda shartnomalarni rasmiylashtirish uslublari, sug'urta munosabatida qatnashadigan tomonlarning huquq va majburiyatlari.

12-MAVZU. SUG‘URTADA INTERNET TEXNOLOGIYALARI VA SOHANI RAQAMLASHTIRISH

Sug‘urta biznesini avtomatlashtirishni rivojlantirish yo‘nalishlari. O‘zbekistonda sug‘urta bozorini raqamlashtirish bosqichlari va uni amalga oshirish tartibi. Sug‘urta tizimini raqamlashtirishning mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri. Sug‘urta kompaniyalari faoliyatini raqamlashtirishga moslashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar. Sug‘urta bozorini avtomatlashtirishning tizim rivojiga ta’siri.

Sug‘urta mahsulotlarini sotishda internet tizimi. Internet orqali sug‘urta mahsulotlarini sotishning qulayliklari, sug‘urta mahsulotini onlayn orqali sotishni tashkil etish. Xorijiy mamlakatlarda sug‘urta mahsulotlarini internet orqali sotish tizimi.

13-MAVZU. ISLOM (TAKAFUL) SUG‘URTA TIZIMI

Islom sug‘urtasining mohiyati, takafullga berilgan tariflar tasnifi, islom sug‘urtasi yoki takafulning nazariy-iqtisodiy asoslari, tamoyillari va amalga oshirish modellari tahlili,

14-MAVZU. JAHON SUG‘URTA BOZORI RIVOJLANISHINING UMUMIY TENDENSIYALARI VA RIVOJLANGAN MAMLAKAT SUG‘URTA TIZIMLARI

Jahon iqtisodiyotini rivojlanishida sug‘urtaning o‘rni va ahamiyati. Jahon sug‘urta bozori taraqqiyotidagi asosiy tendensiyalar. Xalqaro miqyosida yig‘ib olingan sug‘urta mukofotlarini mintaqalararo taqsimlanishi. Shimoliy Amerika sug‘urta bozori rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida sug‘urta sohasini tez sur‘atlar bilan taraqqiy etish sabablari.

AQSh, Buyuk Britaniya va Yevropa ittifoqi iqtisodiyotida sug‘urtaning tutgan o‘rni va ahamiyati. Sug‘urtaning rivojlanish bosqichlari. Faoliyat ko‘rsatayotgan yirik sug‘urta kompaniyalari va ularga umumiy tavsifnoma. Mazkur davlat sug‘urta bozorlarida sug‘urta vositachilari, ularning asosiy funksiyalari va vazifalari. Sug‘urta tizimini davlat tomonidan tartibga solinishi. Sug‘urta kompaniyalari tomonidan ko‘rsatiladigan asosiy sug‘urta xizmatlari. Sug‘urtaning majburiy va ixtiyoriy shakllari.

II. ASOSIY VA QO‘SHIMCHA O‘QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI

Asosiy adabiyotlar:

1. Abduraxmonov I., Abduraimova M., Abdullayeva N. Sug‘urta nazariyasi va amaliyoti. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2021. – 420 b.
2. Абдурахмонов И.Х. Теория и практика страхования. Учебник. – Т.: Иқтисод-молия, 2021. – 696 с.
3. Yuldashev O., Zakirxodjaeva Sh. Hayot sug‘urtasi. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2021. –380 b.
4. Abduraxmonov I.X., Tursunov J.P., Zakirxodjayeva Sh.A., Xamrayeva F.Sh. Sug‘urta ishi: I qism. O‘qo‘v qo‘llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2021. –592 b.
5. Yuldashev O., Zakirxodjaeva Sh. Hayot sug‘urtasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2019. –384 b.

6. Баймуратов Т.М. Рискология: I част. Учебник. –Т.: Иқтисод-молия, 2020. –348 с.

7. Баймуратов Т.М. Рискология: II част. Учебник. –Т.: Иқтисод-молия, 2020. –320 с.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-sonli Qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni.

11. Abduraxmonov I., Kenjayev I.G‘. Sug‘urta menejmenti. O‘quv qo‘llanma. –Т.: Iqtisod-moliya, 2020. – 293 b.

12. Kenjayev I.G., Abduraimova M.A., Abdullayeva N.A. Sug‘urta biznesi. O‘quv qo‘llanma. – Т.: Iqtisod-moliya, 2020. –320 b.

13. Kenjayev I., Matiyazova S., Adilova G. Sug‘urta mahsulotlarini sotishni tashkil etish. O‘quv qo‘llanma. Т.: Iqtisod-moliya, 2018. 132 b.

14. Abduraxmonov I. Sug‘urta nazariyasi va amaliyoti. O‘quv qo‘llanma. – Т.: Iqtisod-moliya, 2018. – 380 b.

15. Маслова Т. Медицинское страхование граждан. Новшества, возможности выбора. – М.: Библиотечка РГ, 2019. – 192 с.

16. Андреева Е. В. Страхование: курс лекций. – Иркутск: Изд-во БГУ, 2015. – 263 с.

17. Kenjayev I., Matiyazova S., Adilova G. Sug‘urta mahsulotlarini sotishni tashkil etish. O‘quv qo‘llanma. Т.: Iqtisod-moliya, 2018. 132 b.

18. Разумовская Е.А., Фоменко В.В. Страхование дело: учебное пособие. – Екатеринбург: Гуманитарный университет, 2016. – 249 с.

19. Тарасова, Ю. А. Страхование: учебник и практикум для прикладного бакалавриата. – М.: Издательство Юрайт, 2018. – 236 с.

20. Robert H., II Jerry, Douglas S. Richmond “Understanding Insurance Law”, LexisNexis; 5 edition, UK, 2016

Axborot manbaalari:

21. www.gov.uz (O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali);

22. www.lex.uz (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari bazasi);

23. www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining rasmiy sayti);

24. www.znay.ru (Elektron kutubxona);

25. www.saipro.uz (“Saypro” reyting agentligi rasmiy sayti).